

## **BOSHLANG'ICH SINF DARSLARI JARAYONIDA HUQUQIY BILIM BERISH IMKONIYATLARI**

**Ochilova Gulbeka Asliddinovna,  
Umirzoqova Vazira G'ayratovna,  
Rasulova Xurshida Nishonovna**

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani  
47-umumta'lim maktabining boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi

Tarbiya yordamida kishiga insoniy hislatlar qanoat, insof, diyonat, kattaga hurmat, kichikka izzatda bo'lish singdiriladi. Ana shu fazilatlar kishilarda insoniy, ma'naviy-axloqiy salohiyat va ijtimoiy faollilikni oshirib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtiradi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan ta'lif sohasidagi islohatlar, avvalombor, shu islohatlarni amalga oshirishga faol ishtirot etadigan, umuminsoniy qadriyatlarni mukammal egallagan, sog'lom, iymon-e'tiqodli, aqlan teran, axloqan pok, o'z haq-huquqlari, burch va mas'uliyatlarini chuqur anglaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan

**Kalit so'zlar:** Huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat, huquqiy bilimdonlik, qo'riqxona, qo'riqxona xaritasi, "Qizil kitob", Konstitutsiya.

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy madaniyatni shakllantirish O'zbekistonda davlat va yoshlar siyosatining ustuvorligini bildiradigan o'ziga xos ijtimoiy belgidir. Chunki yoshlarni hayotga ishonch bilan qadam qo'yishlari aynan ana shu ijtimoiylashuv va huquqiy madaniyatni oshirishga bog'liq. Huquqiy madaniyat inson va jamiyat ma'naviy dunyosining tarkibiy qismlaridan biridir. Chunki u inson tomonidan yaratilgan barcha qadriyatlarning umumiyligini o'zida ifoda etadi.

Mustaqillik biz uchun, avvalo, o'z taqdirimizga egalik qilish huquqi, kelajagimizni o'z qo'limiz bilan barpo etish, yurtimiz boyliklaridan faqat xalqimiz va Vatanimiz manfaatlari yo'lida foydalanish demakdir.

Ushbu da'vat o'quvchi-yoshlarning siyosiy-madaniy faolligini oshirish, ilmiy dunyoqarash, axloqiy-estetik ideallarini shakllantirish orqali mustaqillikni mustahkamlab, demokratik huquqiy davlat asoslarini yanada chuqurlashtirish va buning uchun esa kelajak avlodda fuqarolik madaniyatini tarbiyalashga undaydi.

Ma'lumki, inson aql ko'zi, qalb qo'ri, mohir qo'li bilan nimaniki yaratmasin uning zamirida bilim, qobiliyat, iste'dod, tajriba, ijod, fikr va mehnat orqali tarkib topgan uning madaniy faoliyati yotadi. Bu faoliyat jamiyatdagi ijtimoiy-ijodiy bayot, qonun-qoidalar, taraqqiyot tamoyillari bilan bog'liq holda takomillashib boradi.

Bolalarga huquqiy tarbiyani oilada ilk davrdanoq, maktabda esa boshlang'ich sinfdanoq singdirib boriladi.

Uyda ota-onaligining bolalariga beradigan huquqiy tarbiya, ham iqtisodiy tarbiyadan biri - "Nonni uvol qilma, ko'zing ko'r bo'ladi". Bu so'zlar orqali bolada o'zining oldidagi uvol qilmaslik burchi shakllanadi.

O'quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishda boshlang'ich sinf darslaridan oq berib borishimiz, ularning burch va vazifalari haqida o'rgatib, uni shakllantirib borishimiz kerak. Bolani huquqiy tushunchalarini dars jarayonida amalga oshirishimiz muhim omillardan biridir. Avvalo darslar mavzulari asosida huquqiy tushuncha tarbiyani shakllantirish darkor. Bunga misol qilib 4-sinf darslarida "Qo'riqxonalar" mavzusi orqali tushuntirib o'tishimiz

mumkin. Bu dars orqali o'quvchilar o'zlarini burchi va jamiyat oldidagi vazifalari nimadan ekanligini bilib oladilar.

Mavzu: "Qo'riqxonalar"

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarning qo'riqxonalar haqidagi bilimlarini kengaytirish. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan qo'riqxonalar va ularning maqsadi, vazifalari bilan tanishtirish. TK2: media vositalardan foydalaniib, mavzuga doir didaktik topshiriqlarni bajara olish;

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni tabiatning eng diqqatga sazovor go'zal manzaralarini e'zozlashga o'rgatish hamda ularga huquqiy tarbiya va nafosat tarbiyasini berish TK4: O'zi yashaydigan joyda o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilishda o'z hissasini qo'sha olish

Rivojlantiruvchi maqsadi: Qo'riqxonalar haqidagi bilimlarini hayotga tadbiq etishga yo'llash.

Darsning turi: Aralash

Dars metodi: Savol-javob, klaster, kichik ma'ruza, rolli o'yin.

Konstitutsiya alifbosi: 50-55-moddalar

Milliy g'oya: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, komil inson, xalq farovonligi hamda ijtimoiy hamkorlik.

Darsning jihizi: Kompyuter slaydlari, rasmi li ko'rgazmalar, magnitafon, tarqatmalar, archa yong'og'I, "Qizil kitob" qo'llanmasi, darslik, "Rang-barang tabiat" qo'llanmasi.

Tashkiliy qism.

Salomlashish, davomatni aniqlash. O'quvchilarni darsga tayyorlash.

Sinf xonasi ekologik jihatdan toza va ozoda ekanligini ta'kidlash, bugungi darsni do'stona va hamkorlikda olib borilishini aytish.

O'quvchilarni guruhlarga bo'lish. Tarqatmalar ortiga "Quyosh", "Yer", "Havo", "Suv", "Osmon" so'zleri yozilgan. Tarqatmalarni o'quvchilar tanlab oladilar.

O'qituvchi "Quyosh" deganda "Quyosh" so'zi yozilgan tarqatmalarni olgan 6 nafar o'quvchi bir joyga to'planadi.

Guruhlarni joylashtirish.

Dars jarayonida o'quvchilardan sehrli so'zlardan unumli foydalanishni aytish.

Agar ijozat bersangiz

Mumkin bo'lsa

Sizni to'g'ri tushungan bo'lsam

Qarshi bo'lmasangiz

Muzyorar. Kompyuter orqali "Mening ismim.....va men yoqtirgan tabiat mo'jizasi" yozuvi chiqadi.

O'qituvchi va har bir o'quvchi ishtirok etadi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

Bu nima bolalar?

"Qizil Kitob".

Kompyuterda savollar yozilgan slayd ko'rsatiladi.

Nima uchun "Qizil kitob" deb ataladi?

"Qizil kitob" nima uchun kerak?

O'zbekiston tabiatini asrash to'g'risida Konstitutsiyaning qaysi moddasida aytilgan?

Tabiatga zarar yetkazmaslik uchun odam o'zini qanday tutishi kerak?

Qizil rang-ogohlik belgisini yana qayerda ko'rgansiz?

Bizning tabiat oldidagi huquq va burchlarimiz nimadan iborat?

Yo'qolib ketayotgan hayvon va o'simliklar qayerda muhofaza qilinadi?

Yangi mavzu bayoni:

Yangi mavzu: “Qo’riqxonalar”

Kompyuter orqali 16, 25, 17, 8, 16, 22, 14, 13, 1, 11, 17 yozuvi chiqadi.

O’quvchilarga alifboda shu sonlar o’rnida qaysi harf joylashganini toppish topshiriladi.

O’quvchilar alifboden foydalanib “Qo’riqxonalar” so’zini topishadi

2. Klaster usuli asosida “Qo’riqxona” so’ziga ta’rif namunasi slaydi kompyuterda ko’rsatiladi. O’quvchilar o’z bilganlarini yozib ko’rsatadilar, taqdimot etadilar. O’qituvchi xulosalaydi.

3. Kichik ma’ruza. Qo’riqxonalar haqida hamda bizning tabiat va atrof muhit oldidagi huquq va burchlarimiz haqida ma’lumot berish. Kompyuter orqali qo’riqxonalarda uchraydigan hayvonlar, qushlar, baliqlar va o’simliklar tasvirlari ko’rsatiladi va ularga ta’rif berib boriladi.

4. Qo’riqxona xaritasi yuzasidan suhbat o’tkaziladi.

5. Enerjayzer.

O’quvchilar bilan birgalikda “Paypaslab top” o’yinini o’ynash. Har bir guruhda bittadan ishtirokchi chiqib, ko’zi bog’langan holda turadi. Sehrli baliqcha ichidan yovvoyi va uy hayvonlaridan birini olib, qo’li bilan paypaslab, bu qanday hayvon ekanligini topadi. To’g’ri topgan o’quvchi shu hayvon nomining birinchi harfi bilan boshlanadigan hayvon va qushlarning nomini aytadi. Topgan o’quvchi rag’batlantiriladi. O’yin shu tariqa davom etadi.

6. Darslik bilan ishslash. “Kapalak tutish” o’yini orqali o’quvchilarning qanchalik sezgir, chaqqonliklarini, ifodali o’qish malakalarini tekshirib borish mumkin. Bunda magnitafon tasmasidan foydalaniladi. Darslikdagi matnning xohlagan joyidan o’qib eshittiriladi, o’quvchilar o’sha joyni topib davom ettirishlari kerak.

Faol qatnashgan o’quvchilar rag’batlantiriladi.

7. Rolli o’yin: Ikki o’quvchi qatnashadi.

1-o’quvchi:-Do’stim bahorgi ta’tilda nima qilding?

2-o’quvchi:-Men toqqa buvimlarnikiga bordim

1-o’quvchi-Tog’ manzarasi juda go’zal bo’lsa kerak, a?

2-o’quvchi:-Ha. Juda go’zal

1-o’quvchi:-U yerda nimalar qilding, nimalarni ko’rding

2-o’quvchi:-Tog’da echkilarni ko’rdim. Lolalarning piyozlarini kovlab oldim. Archalar juda ko’p. shoxlarini sindirib, olovga tashladim. Hidi juda zo’r. Xullas, juda zo’r dam oldim.

1-o’quvchi:-Men ham toqqa dam olishga albatta boraman.

Savol:Xo’sh, bolalar bu sahna ko’rinishiga munosabatingiz? U to’g’ri ish qildimi?  
Siz ham shunday ish qilarmidingiz?

Bolalarning fikr-mulohazalari tinglanib, o’qituvchi tomonidan to’ldiriladi.

Mustahkamlash

Yakuniy qism

Uyga vazifa: “Qo’riqxonalar” mavzusini o’qib kelish. Qo’riqxonalar haqidagi tasavvurlarini chizib kelish.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy tarbiya jarayonida yoshlarning huquqiy ongi shakllanadi. Yoshlarni jamiyat talablariga davlatning qonun qoidalariga, milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizga chuqur hurmat-ehtiromli bo’lishga, atrof-muhitga ijobiy munosabatda bo’lishga o’rgatish huquqiy ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.